

## AMIR TEMUR ILM-FAN HOMIYSI

## Mirzaakbarova Roziyaxon

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet tillari Instituti Xorijiy til va Adabiyoti  
Ingliz tili yo'nalishi 4-kurs talabasi  
[roziyaxonmirzaakbarova@gmail.com](mailto:roziyaxonmirzaakbarova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning ilm-fan, ta'lim va madaniyatga qo'shgan hissasi, shuningdek, uning hukmronligi davrida yaratilgan madaniy va ilmiy meros haqida so'z yuritiladi. Maqola Temuriylar davridagi madrasalar, ilmiy markazlar va san'at sohasidagi yutuqlarni ko'rsatib o'tadi. Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi kabi yirik inshootlarning ilmiy va me'moriy ahamiyati, shuningdek, Temurning olimlar va san'atkorlarga bo'lgan e'tibori va qo'llab quvvatlashi tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Temuriylar davrining madaniy va ilmiy rivojlanishini, shuningdek, Amir Temurning bu sohalarga bo'lgan alohida e'tiborini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, ilm-fan, Temuriylar davri, madaniyat, ma'rifat, bunyodkorlik, Dorut-Tilovat majmuasi, Bibi Xonim madrasasi, Sharofiddin Ali Yazdiy, A.Vamperi, V.V.Bartold, O'.Alimov, maqbaralar.

**Abstract:** This article examines the contributions of Amir Temur to the advancement of science, education, and culture, as well as the cultural and intellectual legacy established during his reign. It explores the development of madrasas, scholarly centers, and the arts in the Timurid period, highlighting their significance within the broader historical context. Particular attention is given to the scientific and architectural importance of major complexes such as the Bibi Khanum Madrasa and the Dorut-Tilovat ensemble. The study also analyzes Amir Temur's patronage of scholars and artists, emphasizing his role in fostering intellectual and cultural growth. Furthermore, the article elucidates the overall trajectory of cultural and scientific development in the Timurid era, underscoring Amir Temur's distinctive commitment to these domains.

**Keywords:** Amir Temur, science, the Timurid period, culture, enlightenment, construction and patronage, Dorut-Tilovat complex, Bibi Khanum Madrasa, Sharofiddin Ali Yazdiy, Arminius Vambery, Vasily Bartold, O'. Alimov, mausoleums.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вклад Амира Темура в развитие науки, образования и культуры, а также анализируется культурное и интеллектуальное наследие, сформировавшееся в период его правления. Особое внимание уделяется развитию медресе, научных центров и искусства в эпоху Тимуридов, а также их значению в более широком историческом контексте.

*В работе исследуется научная и архитектурная значимость крупных комплексов, таких как медресе Биби-Ханым и ансамбль Дорут-Тиловат. Кроме того, анализируется покровительство Амира Темура ученым и деятелям искусства, подчеркивается его роль в стимулировании интеллектуального и культурного развития.*

*Также в статье освещаются общие тенденции культурного и научного развития в эпоху Тимуридов, акцентируется особое внимание Амира Темура к данным сферам.*

**Ключевые слова:** *Амир Темура, наука, эпоха Тимуридов, культура, просвещение, созидательная деятельность, комплекс Дорут-Тиловат, медресе Биби-Ханым, Шарафиддин Али Язди, Арминий Вамбери, Василий Бартольд, О'. Алимов, мавзолеи.*

**Asosiy qism:** Tarix sahifalarida kamdan-kam shaxslar bor-ki, o‘zining harbiy iqtidori bilan birga, ilm-fan va madaniyatga ham mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa. Ana shunday buyuk zotlardan biri Amir Temurdir. U nafaqat mard sarkarda, dono davlat arbobi, balki ilm-fanni rivojlantirish, madaniyatni yuksaltirishga ulkan e‘tibor qaratgan hukmdor sifatida ham tarixda nom qoldirgan.

Amir Temur ko‘plab davlatlar tarixida faqatgina o‘zining jangovar yutuqlari bilan mashhur bo‘lgan mohir sarkarda emas, balki ilm-fan va madaniyatni yuksaltirgan, olim-u fuzalolarning ilmini hurmat qilgan holda ularga izzat-ikrom ko‘rsatgan hukmdor sifatida e’tirof etiladi. Uning hukmronligi davrida ilm-fan madaniyat va ma’rifat sohalarida amlaga oshirgan ishlari o‘shaxalqning aqlan va ma’nan o‘shishiga katta hissa qo‘shgan. Amir Temur mamlakatning har tomonlama taraqqiyotida ilm-fanning ahamiyatiga alohida urg‘u bergan. U olimlarni qo‘llab-quvvatlab, ilmiy ishlarga yuqori ahamiyat bergan. Temur o‘z asarlarida ilm-fan va ma’naviyatni yuksaltirish zarurligini ko‘rsatgan va ilmiy ishlar va izlanishlarni rag‘batlantirgan. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida ta’lim va ilm-fanga katta ahamiyat berildi. Ilm-ma’rifatga homiylik qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda barcha yirik shaharlarda madrasalar qurilib, ularda o‘z zamonasining mashhur olimlari va ulamolari tolibi ilmlarga saboq berish uchun jalb etildi. Bundan tashqari, u taraqqiyotning poyde vori sifatli ta’lim ekani haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lgan va shu bois, u avvalo ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishga, ilmli insonlar mavqeini oshirishga intilgan edi.

Shu o‘rinda Sohibqiron Amir Temurning ilm-fan vakillariga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini ko‘rsatib turuvchi yana bir parchani keltirmoqchimiz. Venger sayyohi G.Vamberi bu haqda shunday deydi: “Amir Temur faqat mahalliy mualliflarnigina rag‘batlantirmay, balki o‘z poytaxtiga chet el olimlari va shoirlarini ham jalb etdi hamda ularning hammasiga hotamtoylarcha mukofotlar hadya etar va o‘z shaxsiy e‘tibori va homiyliги bilan ularni

qo‘llab-quvvatlardi. Ana shu olimlarning ayrimlari Amir Temur saltanatida o‘z vatanidagidan ko‘proq ta‘minlangan edi”<sup>60</sup>.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”, degan so‘zlari buning yorqin isbotidir.

Amir Temurning obodonchilik ishlari to‘g‘risida taniqli sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: “Temur go‘yo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shug‘ullangan, degan fikr mubolag‘ali. U Qobul vodiysi va Mug‘an cho‘li kabi Samarqanddan uzoq bo‘lgan joylarda ulkan sug‘orish ishlarini olib bordi”<sup>61</sup>, degan tarixiy jihatdan g‘oyat qimmatli fikrni aytib o‘tgan.

Bu fikrga qiyos qilib, Ali Yazdiyning yozishmasini keltirish maqsadga muvofiqdir.

“Bir yil mobaynida, – deb yozadi o‘rta asr tarixchisi Ali Yazdiy, – Bag‘dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o‘z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak-atrofida dehqonchilik o‘ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakirga topshirildi”<sup>62</sup>.

Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me‘morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat-u inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari, jumladan, Bag‘dod, Darband, Baylaqonni qayta tikladi. U Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsada, lekin asosiy e‘tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi.

Amir Temur dunyo madaniyatiga, ma‘naviyatiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk shaxsdir. Amir Temur qurdirgan Bibixonim masjidi (1404), Oqsaroy qasri (1380-1404), Dorus-saodat maqbarasi (1380) oliy imoratlardir.

Bog‘sozlik san‘ati ham taraqqiy etib, Samarqand atrofida go‘zal bog‘lar barpo etildi. Amir Temur ilm-fan va san‘atni qo‘llabquvvatlab, olim va san‘atkorlar uchun qulay muhit yaratdi. Bu davr “Ikkinchi Islom uyg‘onish davri” deb atalib, Amir Temur madaniyat va ma‘naviyat homiysi sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

<sup>60</sup> A.Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent. 2024.

<sup>61</sup> M.Xo‘jamov “V.V.Bartold O‘rta Osiyo tarixiga hissa qo‘shgan olim”. Xorazm .2019.

<sup>62</sup> [https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-bunyodkor-va-ilm-fan-homiysi\\_587316](https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-bunyodkor-va-ilm-fan-homiysi_587316)

Tadqiqotchi O'.Alimov ta'kidlashicha<sup>63</sup>, Sohibqiron Samarqand atrofida 12 ta bog'-saroy barpo ettirgan. Bular Bog'i Naqshijahon, Bog'i Behisht, Bog'i Shohrux, Bog'i Dilkusho, Bog'i Shamol, Bog'i Davlatobod, Bog'i Bo'ldi, Bog'i Maydon, Bog'i Baland, Bog'i Chinor, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Navbog'laridir. Bulardan tashqari mamlakatning boshqa joylarida ham ko'plab bog'lar yaratilgan.

Xususan, Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi o'zining ilmiy va me'moriyahamiyati bilan ajralib turadi. Bibi Xonim madrasasi, Samarqand shahrida 1399–1404-yillarda qurilgan bo'lib, bu madrasa Temurning sevimli xotini Bibi Xonim nomiga bag'ishlanib, ilm-fan markazi sifatida faoliyatko'rsatgan. U Samarqandning eng yirik inshootlaridan biri bo'lib, ilmiy ta'limni rivojlantirishd muhim rol o'ynagan. Madrasada o'qitilgan fanlar orasida astronomiya, matematika, tibbiyot va falsafa kabi sohalar mavjud bo'lib, bu ilmiy sohalar o'sha davrda ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, Bibi Xonim madrasasining me'moriy bezaklari va gumbazlari, o'shadavrning yuksak me'moriy yutuqlarini namoyish etadi. Dorut-Tilovat majmuasi esa 1370-yillarda Shahrisabzda qurilgan bo'lib, Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay xotirasiga bag'ishlanib bunyod etilgan. Majmua masjid, madrasa va maqbaradan iborat bo'lib, ilm-fan va diniy ta'lim markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu majmua, Temuriylar davrining ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lib, ilmiy faoliyat va diniy ta'limni rivojlantirishda muhim o'rin tutgan. Dorut-Tilovat majmuasining inshootlari, murakkab bezaklar va me'moriy innovatsiyalari bilan o'sha davrning yuksak me'moriy merosini aks ettiradi<sup>64</sup>.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amxo'rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan va madaniyat homiysi ham edi. Uning ilm-fanga bo'lgan e'tibori natijasida Temuriylar davrida madaniyat va fan yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. U olimlarni, me'morlarni, shoirlarni o'z panohiga olib, ularga ilmiy

<sup>63</sup> S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov, "Ma'naviyat asoslari". Toshkent.2010.

<sup>64</sup> <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/104571>

faoliyat yuritishlari uchun barcha sharoitlarni yaratdi. Uning sa’y-harakatlari tufayli Samarqand va butun Movarounnahr ilm-fan markaziga aylandi. Bugungi kunda ham Amir Temurning ilmga bo‘lgan hurmati va madaniyatga qo‘shgan hissasi abadiy yodda qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Vamberi. “Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi”. Toshkent.2024.
2. M.Xo‘jamov “V.V.Bartold O‘rta Osiyo tarixiga hissa qo‘shgan olim”.Xorazm .2019.
3. [https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-bunyodkor-va-ilm-fan-homiysi\\_587316](https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-bunyodkor-va-ilm-fan-homiysi_587316)
4. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov, “Ma‘naviyat asoslari”. Toshkent.2010.
5. <https://inlibrary.uz/index.php/igro/article/view/104571>
6. [https://vaqt.ucoz.com/publ/madaniyat\\_va\\_san\\_39\\_at/temur\\_va\\_temuriylar\\_davlatida\\_ilm\\_fan\\_va\\_adabiyot/9-1-0-740](https://vaqt.ucoz.com/publ/madaniyat_va_san_39_at/temur_va_temuriylar_davlatida_ilm_fan_va_adabiyot/9-1-0-740)
7. B. Ahmedov “Temur tuzuklari” tahririda. Toshkent. G‘afur G‘ulom.1996